



FARG'ONA VILOYATI FARG'ONA TUMANI HOKIMINING FARMOYISHI

2025-yil 7-avgust

122-11-163-F/25

Farg'ona tumani hokimligi

O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 28,73-moddalariga asosan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2025 yil 7 martdagি 03-RA 1-3367/5-sonli ko'rsatmasи hamda O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlар vazirligining 2025 yil 27 martdagи xatiga asosan tumanda chet el investitsiyalarini jalb qilishni ta'minlash yuzasidan tuman hokimining investitsiya masalalari bo'yicha o'rindbosarini Xitoy davlatiga xizmat safarini tashkil etish maqsadida:

1. Tumanda chet el investitsiyalarini jalb qilishni ta'minlash yuzasidan tuman hokimining investitsiya masalalari bo'yicha o'rindbosari A.Ahrorovning Xitoy davlatiga xizmat safari bilan bog'liq xarajatlar uchun 45,0 (qirq besh) mln.so'm miqdorida mablag' mahalliy budgetning 2025 yilgi zaxira jamg'armasi hisobidan tuman hokimligiga ajratilsin.

2. Tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi (A.Yusupov)ga, ajratilgan mablag' bo'yicha tuzilgan tuman hokimligining xarajatlar smetasini belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazish, tuman g'aznachilik bo'linmasi (A.Nishonov)ga to'lovlarni o'rnatilgan tartibda va o'z vaqtida amalga oshirish vazifalari topshirilsin.

3. Tuman hokimligi bosh hisobchisi (SH.Jamolova)ga, ajratilgan mablag'ni maqsadli va samarali foydalаниlishini ta'minlash vazifasi yuklatilsin.

4.Tuman hokimining 2025-yil 23 maydagи 81-11-163-F/25-sonli farmoyishining:

1-bandidagi:

"... Yoshlar ishlari agentligi Farg'ona tumani bo'limiga ..." - so'zlari "... tuman hokimligiga ..." - so'zlariga;

3-bandidagi:

“... Yoshlar ishlari agentligi Farg‘ona tumani bo‘limi (M.Alijonov)ga ...” - so‘zlari “... tuman hokimligi bosh hisobchisi (SH.Jamolova)ga ...” - so‘zlariga o‘zgartirilsin;

5. Ushbu farmoyishning bajarilishini nazorat qilish vazifasi tuman hokiminining birinchi o‘rinbosari O.Abduraximov zimmasiga yuklatilsin.

Farg‘ona tuman hokimi



Inomov X.T